

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHDA ICHKI ISHLAR ORGANLARI HAMDA BOSHQA VAKOLATLI DAVLAT ORGANLARI VA MUASSASALARINING O'ZARO HAMKORLIGI

Nazarmuxamedov Davron Abitovich

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining o'rinbosari,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)



Annotatsiya. Maqolada ichki ishlar organlarining jinoyatchilikka qarshi murosasiz kurashish hamda ularning oldini olishda vakolatli davlat organlari va muassasalari bilan o'zaro hamkorligining asosiy yo'nalishlari tahlil qilingan hamda ayrim xorijiy davlatlarning bu boradagi ilg'or tajribalari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatlarning oldini olish, samarali hamkorlik o'rnatish, ilg'or tajriba.

Abstract. The article analyzes the main directions of mutual effective cooperation of law enforcement agencies with competent state bodies and institutions in the uncompromising fight against crime and its prevention, and also examines the best practices of some foreign countries in this area.

Keywords: fighting crime, ensuring public safety, crime prevention, establishing effective cooperation, best practices.

Qonun ustuvorligini ta'minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlarini himoya qilish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga bo'ysunish va hurmat ruhida tarbiyalash – demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishning nafaqat maqsadi, balki uning vositasi, eng muhim sharti hisoblanadi.

“Aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash – bugungi kunda eng muhim vazifasidir” [1]. Mazkur vazifa ijrosi yuzasidan mamlakatimizda sud-huquq sohasida amalga oshirilib kelina-yotgan keng ko'lamli islohotlar xavfsizlik va huquq-tartibotni, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda muhim poydevor bo'lmoqda, respublikada jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashishning yangicha tizimi shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratmoqda. Huquqbuzarliklar profilaktikasi hamda jinoyatchilikka qarshi murosasiz kurashish davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Oxirgi yillarda o'tkazilgan islohotlar natijasida ko'zga ko'rinarli ijobiy ishlar amalga oshirildi, bular har bir sohada, jumladan qonunchilikda ham o'z ifodasini topmoqda.

Har qanday mamlakatda huquq-tartibot organlarining aholi bilan muloqoti, fuqarolik jamiyatining ijtimoiy, o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorligi, bir tomondan, huquqni muhofaza qilish organlarining o'z vazifalarini samarali bajarishi, huquqiy tartibotni ta'minlash, jinoyatlarning oldini olish va boshqa funksional vazifalarini bajarishiga ko'maklashsa, ikkinchi tomondan, fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, jamiyat tuzilmalari manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining yashash sharoitlarini tubdan yaxshilash, turmush darajasida sezilarli ijobiy o'zgarishlarga erishish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hududlarni sektorlarga bo'lib ishni tashkil etish tizimining joriy etilganligi xalq bilan manzilli muloqotning yo'lga qo'yilishiga imkon yaratdi.

Jinoyatchilikning oldini olish sohasida hamkorlik huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi subyektlar, shuningdek, boshqa tashkilotlar va muassasalar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish, jinoyat sodir etgan shaxslar bilan manzilli ishlash, hudud xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni birgalikda amalga oshirish demakdir.

Jinoyatchilikning oldini olish sohasida hamkorlikning samarali tashkil etilishi:

birinchidan, bu jarayonda ishtirok etuvchi subyektlarning vakolatlari amaldagi qonunlarda qanchalik aniq belgilanganligiga;

ikkinchidan, ularning bu yo'nalishdagi faoliyati uchun huquqiy asoslar qanchalik darajada ishlab chiqilganligiga;

uchinchidan, ular o'rtasidagi hamkorlikni tashkil etishning huquqiy mexanizmi qanday darajadaliqiga;

to'rtinchidan, ushbu hamkorlikni tashkil etuvchi kadrlarning tayyorgarligiga bog'liq.

Har bir davlat organining belgilangan vazifalari, majburiyatlari va vakolatlari qonun va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilab berilgan bo'lib, ularning faoliyat yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda hamkorlikdagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Biroq, maqsad umumiy, ya'ni huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon beradigan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishdan iborat.

Yuqoridagi maqsad yo'lida ichki ishlar organlari sud, prokuratura, mehnat, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa organlar bilan hamkorlik qiladi. Ichki ishlar organlarining boshqa davlat organlari va mahalliy davlat idoralari bilan huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning haq-huquqlarini himoya qilish, jamoatchilik bilan aloqalarni yanada mustahkamlash borasida qilayotgan ishlari o'z samarasini bermoqda.

Xorijiy davlatlarda ma'muriy hudud doirasida jinoyatlarning oldini olish, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha faoliyat turli yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Bu borada har bir davlatning o'ziga xos tajribasi mavjud bo'lib, uni o'rganish bugungi kunning dolzarb talablaridan biridir.

D.V. Vasilev ta'kidlaganidek, xorijiy tajribani o'rganish ijtimoiy taraqqiyotga yordam beruvchi omillarni aniqlash, jamiyat va uning alohida quyi tizimlari rivojlanishining fundamental qonuniyatlarini ochish, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mezonlarini shakllantirish, rivojlanish dinamikasini bashorat qilish imkonini beradi [2].

Mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikni yanada takomillashtirish maqsadida xorijiy tajriba, jumladan Turkiya, Germaniya, Rossiya Federatsiyasi, Singapur va

Malayziya kabi rivojlangan davlatlarning jamoat tartibini saqlash va jinoyatlarning oldini olish bo'yicha qabul qilgan qonun hujjatlari o'rganildi. Mazkur mamlakatlarda "Jamoat tartibini saqlashni tashkil etish to'g'risida"gi va "Jamoat tartibini saqlashda fuqarolarning ishtiroki to'g'risida"gi qonunlar alohida-alohida qabul qilingan.

"Jamoat tartibini saqlashni tashkil etish to'g'risida"gi qonun kam sonli davlatlarda qabul qilingan bo'lsada, lekin jamoat tartibini saqlashda fuqarolarning ishtirokini belgilovchi qonunlar yuqorida sanab o'tilgan mamlakatlarda qabul qilinib, unda mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan, shuningdek fuqarolar bilan hamkorlik masalalari huquqiy kafolatlangan.

Turli davlatlarda ma'muriy hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyati turli yo'llar, usullar bilan ta'minlangan. Ushbu sohada har bir davlat o'ziga xos tajribaga ega bo'lib, ularni o'rganish hamda mos keladiganlarini respublikamiz jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimiga tatbiq etish asosiy vazifalardan biridir.

Xorijiy mamlakatlarning tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, ularda davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini tashkil etishning huquqiy asoslari mavjud. Jumladan, Turkiyada Jamoat xavfsizligini ta'minlash bosh boshqarmasi (Topium Destekli Polis) markaziy boshqaruv apparati bo'lib, jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda huquqbuzarliklarni oldini olish borasidagi hamkorlik masalalarini muvofiqlashtiradi [3].

Singapur davlatining milliy qonunchiligida ham jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda maxsus vakolatli davlat organlari (ichki ishlar organlari)ning mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlik asosida tegishli chora-tadbirlarni olib borishi ularning mazkur sohadagi munosabatlarini tartibga soluvchi qonun hujjatlarida huquqiy kafolatlab qo'yilgan. Singapurda 2012-yil 31-mayda qabul qilgan "Jamoat tartibi to'g'risida"gi qonuni bunga yorqin misolidir [4].

Singapur davlatining "Jamoat tartibi to'g'risida"gi qonunining 2-moddasida jamoat tartibini saqlashda "tashkil etish" va "qatnashish" tushunchalarining ma'nosi ochib berilgan. Sababi mazkur qonunning obyektini jamoat tartibi to'g'risidagi ijtimoiy munosabatlar tashkil etishini

inobatga olgan holda jamoat tartibini saqlashda uning tashkil etilishi va mahalliy davlat hokimiyati organlarining ishtirok etishi muhim ahamiyatga ega. Bu esa jamoat tartibini saqlashni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlariga ko'maklashish imkoniyatini yaratadi.

Shuningdek, AQSHda ham yuqoridagiga o'xshash amaliyot mavjudligiga guvoh bo'lish mumkin. Ya'ni, AQSHda ham huquq-tartibotni saqlash hamda profilaktika ishlarini olib borish uchun aholini jalb qilish holatlari keng rivojlangan. Bu yerda ko'ngillilardan iborat bo'lgan politsiya yordamchilari jamoatchilik instituti mavjud. Ular, o'z navbatida, skautchilar harakatining filiali hisoblanadi. Ko'ngilli yordamchilar hududiy politsiyaning jamoatchilik bilan ishlash bo'limi rahbarligida o'z faoliyatini olib boradi.

Ko'rinib turibdiki, rivojlangan mamlakatlarda fuqarolik jamiyati institutlari, jamoat birlashmalari, turli xil ijtimoiy harakatlar hamda huquqni muhofaza qilish organlari bilan tenglik prinsipi asosida hamkorlikni o'rnatishga katta ahamiyat berilgan. Ushbu hamkorlik ikki tomonning manfaatiga ham to'g'ri kelishi tabiiy. Politsiya o'ziga yuklatilgan jamoat tartibini saqlash va qonuniylikni mustahkamlash maqsadida qo'shimcha sarmoya ajratmagan holatda o'ziga yuklatilgan vazifalarning bir qismini fuqarolardan iborat turli xil jamoalar guruhlariga topshirishlari mumkin. Bu bilan, birinchidan, unga yuklatilgan ish hajmi qisman yengillashsa, ikkinchidan, fuqarolar oldida ularga bo'lgan ishonch, hurmat oshishiga sabab bo'ladi.

Yaponiya aholi turar joylarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash politsiyaning quyi bo'g'inlari politsiya post va punktlari tomonidan amalga oshiriladi. Mamlakatda jamoatchilik bilan hamkorlikni kuchaytirish politsiya faoliyatini takomillashtirishga xizmat qilishini yaxshi tushungan Yaponiya hukumati aholi turar joylarida politsiya post va punktlarini yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratgan [5].

Fransiyaning to'liq mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan ta'minlanadigan munitsipal politsiyasi shaharlar va boshqa aholi punktlarida jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashni amalga oshiradi hamda bu borada milliy politsiya bilan uzluksiz hamkorlikda faoliyat olib boradi [6].

AQSH tajribasidagi muhim bir jihatga e'tibor qaratsak. So'nggi yillarda politsiyaga ko'maklashish bo'yicha murojaat qilgan ko'ngilli

fuqarolarga sheriflik bo'linmalari tomonidan: jamoatchilik tuzilmalarining hudud xavfsizligini kuzatish klubi; jamoatchilik akademiyalari ko'ngilli fuqarolari; patrulda ishtirok etuvchi ko'ngillilar kabi dasturlar taklif etiladi. Shunday ko'ngilli guruhlardan biri dastlab Nyu-York metrosida tartibni saqlashda politsiyaga yordam berish maqsadida tashkil etilgan "Qo'riqchi farishtalar" guruhi bo'lib, bugungi kunda mamlakatning 30 dan ortiq shahrida faoliyat yuritmoqda [7].

Yevropa mamlakatlarida huquqni muhofaza qilish organlarining ommaviy axborot vositalari bilan aloqalarida (hamkorligida) media maydondagi faoliyati, axborot almashish jarayonidagi faoliyati alohida diqqat markazida turadi. Ushbu davlatlarida ommaviy axborot vositalari tom ma'noda "to'rtinchi hokimiyat"ni namoyon etuvchi kuch bo'lib, inson huquqlarini ta'minlash borasida davlat organlariga, jumladan huquqni muhofaza etish organlariga samarali yordam ko'rsatadi.

Rossiya Federatsiyasida ichki ishlar organlari (politsiya)ning ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorligi konvensiyasi qabul qilingan. Unga ko'ra, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan politsiyaning hamkorligi ishonchlilik, ommaboplik, xolislik, ochiqlik, axborotni ommaviy muhokama qilish mumkinligi prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

O'zbekistonda ham jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashishda ichki ishlar organlari hamda boshqa vakolatli davlat organlari va muassasalarining o'zaro hamkorligini kuchaytirishga alohida qaratilmoqda. Mamlakatimizda adolatli fuqarolik jamiyati qurish jarayonida yagona davlat huquqiy siyosatini sifatli tashkil etish, izchil va bir xil huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirish, inson huquq va erkinliklarining samarali himoya qilinishini ta'minlash yo'li bilan amalga oshirishni ko'zlovchi ichki ishlar organlariga alohida o'rin ajratilmoqda.

Ko'plab davlat hokimiyati organlari huquq-tartibotni ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmida ishtirok etadilar, ichki ishlar organlari esa mahalliy davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni, huquq-tartibotning sifati va samaradorligini belgilaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ichki ishlar organlarining boshqa davlat organlari va

mahalliy hokimiyat idoralari bilan hamkorligining ayrim jihatlarini va takomillashtirish istiqbollari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1) hamkorlikning ijtimoiy ahamiyati ichki ishlar organi tizimini tashqi muhit bilan o'zaro hamkorligining zaruratida hamda ichki ishlar organi oldida turgan vazifalarni bajarishda namoyon bo'ladi;

2) har qanday hamkorlik singari, ichki ishlar organlarining boshqa davlat organlari va mahalliy hokimiyat idoralari bilan hamkorligi ham muayyan tamoyil (prinsip)larga asoslangan bo'ladi. Ular:

- qonuniylik;
- inson qadr-qimmatini, huquq va majburiyatlarini himoya qilish;
- tizimlilik;
- o'zaro kelishilganlik;
- muayyan maqsadga qaratilganligi (ya'ni jinoyatchilikka qarshi kurashish) va hokazo;

3) hamkorlikning shakllari protsessual va noprotsessual shakllarda namoyon bo'lib, bevosita protsessual qonunchilik bilan tartibga solinuvchi munosabatlar protsessual maqomida, tashkiliy yoki huquqni qo'llash amaliyotida shakllangan o'zaro munosabatlar noprotsessual shakllarda bo'ladi;

4) ichki ishlar organlarining boshqa davlat organlari va mahalliy hokimiyat idoralari bilan hamkorligi mexanizmi o'z ichiga hamkorlikni tashkil etishni, uni amalga oshirishni, boshqarish hamda hamkorlik jarayonini tartibga solishni qamrab oladi;

5) ichki ishlar organlarining boshqa davlat organlari va mahalliy hokimiyat idoralari bilan hamkorligi samaradorligini oshirish maqsadida rahbarlarning aholi oldiga chiqishlari ularning davlat idoralariga ishonchi ortishiga hissa qo'shadi;

6) aholi oldida og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar bo'yicha ular sodir bo'lganidan keyin emas, aksincha jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan chiqishlar sonini ko'paytirish lozim. Zero, aholi o'zi istiqomat qiladigan hudud rahbarini bilishi, biror muammo yuzasidan darhol yuqori turuvchi instansiyaga emas, balki ichki ishlar organi boshlig'iga murojaat etishi mumkinligini anglab yetishi muhim;

7) hamkorlik samaradorligini oshirish maqsadida hududda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish kerak;

8) rahbarlar Internet ijtimoiy tarmoqlarida o'zlarining shaxsiy sahifalariga ega bo'lishlari,

ularni fuqarolar bilishlari hamda zarurat tug'ilganda murojaat eta olishlari lozim;

9) mahalliy davlat hokimiyati organlari va ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash borasida qurilgan o'zaro hamkorligi quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirilishi lozim:

huquq-tartibotning holati va uni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida axborot almashish;

kompleks maqsadli dasturlarni birgalikda ishlab chiqish va alohida tadbirlarni amalga oshirish;

mahalliy hokimiyat idoralari huzurida axborot almashish va birgalikdagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadida hamkorlikdagi shtat birligi bo'lishi. "Profilaktika kuni", "Korrupsiyaga qarshi kurash oyligi", "OIVga qarshi kurash oyligi", "Odam savdosiga qarshi kurash oyligi" va boshqa shu kabi qator tadbirlarni o'tkazishda ushbu shtat a'zolari hamkorligida aholini targ'ib qilish osonlashadi. Natijada jinoyatlarning oldini olish imkoni ko'payadi.

Bundan tashqari, mahallalarda faoliyat ko'rsatayotgan diniy-ma'rifiy va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilar imkoniyatlaridan samarali foydalanish, shuningdek, xotin-qizlarning ijtimoiy muhofazasi, ularning himoyasini ta'minlash ishlarini kuchaytirish zarur.

Ichki ishlar organlari bilan aholi o'rtasidagi hamkorlikning asosiy yo'nalishlari:

birinchidan, hududda jamoat tartibini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi, ularning sabablari va sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

ikkinchidan, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga, xususan, voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish;

uchinchidan, oilalardagi notinchliklarga barham berish va oila-turmush doirasidagi nizolarni hal etish;

to'rtinchidan, hududda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish, sanitariya va gigiyena qoidalariga rioya etilishini ta'minlash;

beshinchidan, hududdagi ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo tayinlangan, shartli hukm qilingan, jazoni ijro etish muassasasidan shartli ozod etilgan, ichki ishlar organlarining profilaktik hisobida turgan va boshqa shu kabi shaxslarning turmush tarzini nazorat qilish, ular bilan tarbiyaviy-profilaktik ishlar olib borish;

oltinchidan, hududda sodir etilgan tegishli ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va hal etishda o'z aksini topadi.

Darhaqiqat, ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, jinoyatchilikka qarshi kurash, sodir etilgan jinoyatlarni ochish faoliyatini jamoatchilikning, jumladan jamoat tashkilotlarining ko'magi, hamkorligisiz samarali tashkil etib bo'lmaydi. Ushbu hamkorlik obyektiv zarurat bo'lishi bilan birga, boshqaruv subyektlari tomonidan tashkil etiladigan va tartibga

solinadigan tizimli faoliyat hisoblanadi. Zero, respublikamizda huquq-tartibot sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad ham jamoat xavfsizligini ta'minlash va jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish va jinoyatchilikka qarshi kurashish hisoblanib, bu borada ichki ishlar organlari hamda boshqa vakolatli davlat organlari va muassasalarining o'zaro hamkorligini, ularning keng jamoatchilik bilan uzviy aloqasini to'g'ri tashkil etish muhim omil ekanligini unutmazlik lozim.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi // Xalq so'zi. – 2017. – 15 okt.
2. Васильев Д. В. Концепции организации деятельности полиции и возможности их использования в отечественной практике: по материалам США и некоторых стран Западной Европы: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2005.
3. <https://www.egm.gov.tr/toplum-destekli-polislik>.
4. Singapur davlatining 2012-yil 31-mayda qabul qilingan "Jamoat tartibi to'g'risida"gi qonuni / <https://sso.agc.gov.sg/ActRev/POA2009/Published/20120531?DocDate=20120531>.
5. Police of Japan book / Y 2020 / https://www.npa.go.jp/english/Police_of_Japan/2020/poj2020_full.pdf.
6. Wikipedia – The Free Encyclopedia/Municipal Police (France) [https://en.wikipedia.org/wiki/Municipal_Police_\(France\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Municipal_Police_(France)).
7. Wikipedia – The Free Encyclopedia/ Guardian Angels/ https://en.wikipedia.org/wiki/Guardian_Angels.

